Irgasheva Gulbahor	
Davlat vositalari yordamida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishlari	836
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijjon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	



BIZNES TURIZMINING BUGUNGI KUNDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYASI



Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi

Daniyarova Feruza Bahriddinovna

"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

ORCID:0009-0004-7263-881X

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada biznes turizmning zamonaviy rivojlanishi hamda uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ta'sirlari tahlil qilinadi. Biznes turizmi turistik xizmatlar bozoriga qanday ta'sir ko'rsatayotgani va bugungi kunda butun dunyo miqyosida rivojlanayotgan biznes turlarining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: biznes turizm, iqtisodiy ta'sirlar, sayohatlar, raqamli texnologiyalar, madaniy muammolar, mehmonxona sanoati, transport.

Abstract: This scientific article analyzes the modern development of business tourism and its economic, social and cultural impacts. Their impact on the tourism services market and the importance of business types developing worldwide today are considered.

Key words: business tourism, economic impacts, travel, digital technologies, cultural issues, hotel industry, transportation.

Аннотация: В данной научной статье анализируется современное развитие делового туризма и его экономические, социальные и культурные последствия. Рассматривается их влияние на рынок туристических услуг и значение видов бизнеса, которые развиваются сегодня во всем мире.

Ключевые слова: деловой туризм, экономические последствия, путешествия, цифровые технологии, культурные вопросы, гостиничный бизнес, транспорт.

KIRISH

Bugungi kunda biznes turizmining iqtisodiy foydalari, transport va mehmonxona sanoatiga qo'shadigan hisssasi, shuningdek, biznes sayohatlari bilan bog'liq ekologik hamda madaniy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. O'zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda biznes turizmning yangi imkoniyatlari va tendensiyalari, masalan, raqamli texnologiyalar va masofadan ishlashning o'rni alohida yoritilgan. Mazkur maqola turizm sohasida faoliyat yuritayotgan izlanuvchilar uchun amaliy tavsiyalarni ham taklif etadi.

Turizm bugungi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va daromad hajmi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida salmoqli ulushga ega bo'lib, butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11 foizini tashkil qilmoqda. So'nggi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga, turizmdan keladigan daromad esa 60 martaga oshgan va xalqaro turizmdan olinadigan daromad 400 milliard AQSh dollariga yetgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash va xizmat ko'rsatish sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni barqaror rivojlantirish yotadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes turizmi zamonaviy global iqtisodiyotning muhim segmentlaridan biriga aylangan bo'lib, u nafaqat mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga, balki xizmatlar eksportining muhim tarmog'i sifatida iqtisodiy o'sishga ham xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda biznes turizmining tarkibiy tuzilmasi sezilarli darajada o'zgardi. Endilikda bu soha faqat an'anaviy konferensiya va ko'rgazmalar bilan cheklanmay, balki inklyuziv xizmatlar majmuasini, jumladan, tarmoqaro hamkorlik, raqamli integratsiya, sog'liqni saqlash, madaniy xizmatlar va professional rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan platformalarni o'z ichiga olmoqda.

D. Davidson va R. Cope biznes turizmi rivojida "destinatsiyalar brendlashuvi" muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, turistik resurslarning raqobatbardoshligini oshirish uchun biznes tashriflarni qabul qiluvchi shaharlar o'z imidjini kuchaytirishi, logistika va infratuzilma sohasida yangiliklar joriy qilishi zarur. Xususan, ular Singapur va Dubay kabi shaharlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan strategiyalarni tahlil qilib, bu yondashuvlar orqali turizmga jalb etilgan investitsiyalar hajmi ham ortganini qayd etadi.

J. Swarbrooke o'zining xizmatlar marketingi bo'yicha tadqiqotlarida biznes turizmini MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) konsepsiyasi doirasida tahlil qilib, bu model asosida xizmatlar diversifikatsiyasi, ya'ni turlar va xizmatlarning ixtisoslashuvi biznes mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilishini tavsiya qiladi. Uning fikricha, xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion yondashuvlar turizm sanoatida raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichiga aylangan.

A. Morrison esa o'z tadqiqotida biznes turizmining regional iqtisodiyotlarga ta'sirini tahlil qilgan. U jahon tajribasi asosida shuni asoslaydiki, biznes turizmi turar joy sektori, restoranlar, transport va texnik xizmat ko'rsatish kabi ko'plab tarmoqlarni jonlantiradi. Ayniqsa, u yuqori darajadagi anjumanlar va ko'rgazmalar orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining integratsiyasini ta'minlovchi omil sifatida baholaydi.

Shuningdek, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan hisobotda biznes turizmi COVID-19 pandemiyasidan so'ng qayta tiklanish davrida yangi imkoniyatlar bilan yuzlashgani, ayniqsa raqamli xizmatlar va gibrad tadbirlar orqali ko'lamining kengaygani ta'kidlanadi. Raqamli vositalar yordamida xalqaro biznes aloqalarni davom ettirish imkoniyati yaratilgani, shu bilan birga sammit va forumlarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaygani aytiladi.

Shu tariqa, mavjud tadqiqotlar asosida biznes turizmining hozirgi rivojlanish tendensiyasi innovatsiyalar, infratuzilma, destinatsiya strategiyasi va xizmatlar sifati kabi muhim omillar bilan bog'liq ekanini aniqlanmoqda. Ushbu yo'nalishda barqaror yondashuvlar, xususan davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko'rsatish orqali soha salohiyatidan to'laonli foydalanish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar yig'ish uchun ikkilamchi manbalar tahlili qo'llanildi, jumladan, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va soha bo'yicha statistik bazalardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili usuli orqali tizimlashtirilib, biznes turizmining rivojlanish tendensiyalari mavzular kesimida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm – bu shaxsning dam olish, sog'lomlashtirish yoki yangi bilimlarga ega bo'lish (masalan, tarixiy, diniy, madaniy-ma'rifiy ma'lumotlarni o'rganish, tajriba orttirish yoki shaxsiy qiziqishlar) maqsadida doimiy yashash joyidan bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga chiqib ketishidir. Biznes turizm esa nafaqat sayohat qilish, balki kasbiy o'sish, yangi imkoniyatlar yaratish va kompaniya uchun foydali hamkorliklarni o'rnatish imkonini beruvchi muhim strategik vositadir. U kompaniyalar va tashkilotlar xodimlari uchun professional hamda korporativ maqsadlarda amalga oshiriladigan safar bo'lib, malaka oshirish bilan birga, sayohat qilish imkoniyatini ham taqdim etadi. Bu tur turizm sanoatida muhim o'rin egallaydi va kompaniyalar uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi¹.

Bugungi kunda biznes turizmi global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan va turli mamlakatlarda jadal rivojlanmoqda. Tashkilot va kompaniyalar xodimlarini professional maqsadlar asosida boshqa shaharlar yoki mamlakatlarga yuborish orqali nafaqat ishbilarmonlik aloqalari kengaymoqda, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Biznes turizmi iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va sohadagi raqobat muhitining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Mazkur maqolada biznes turizmining iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Uning asosiy komponentlari va sanoatga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va masofadan ishlashning biznes turizm

¹ Бектурдиев, Ж. К. Туризмни мamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni / Ж. К. Бектурдиев. – Текст: непосредственный// Молодой ученый. – 2016. – №12(116). – С.Т.4.40-42. – URL: <https://moluch.ru/archive/116/32164/> (дата обращения: 31.03.2025).



sohasidagi roli hamda yangi tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Maqola biznes turizmining bugungi holatini tahlil qilish asosida uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga va ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarga foydali yo'l-yo'riqlarni taklif etishga xizmat qiladi.

Biznes turizm hozirda iqtisodiyotda muhim o'rin egallab, turizm sanoatining ajralmas tarmog'iga aylangan. Soha rivojlanishi nafaqat tashkilotlar va korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, balki butun iqtisodiy tizimga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu bo'limda biznes turizmining asosiy tarkibiy qismlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, shuningdek, raqamli texnologiyalar hamda uzoq masofali ishlashning biznes turizmga ta'siri keng qamrovda ochib beriladi. Biznes turizmi, asosan, ikki turdagi sayohatlarni qamrab oladi: tashriflar va konferensiyalar. Tashriflar, odatda, korporativ muloqot, hamkorlik o'rnatish va yangi biznes imkoniyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Kompaniyalar o'z xodimlarini boshqa hududlarga yuborib, ularni yangi bozorlar va hamkorlar bilan tanishtiradi. Konferensiyalar esa ilg'or bilimlarni almashish, yangi texnologiyalarni o'rganish va professional tarmoqni kengaytirish imkonini yaratadi. Shuningdek, seminarlar, treninglar va taqdimotlar ham biznes turizmining muhim shakllari qatoriga kiradi.

Biznes turizmining iqtisodiy ahamiyati beqiyosdir. Birinchidan, biznes turizmi mehmonxona va transport sanoatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Har bir biznes sayohati mehmonxonalarda yashash, restoranlar va transport xizmatlaridan foydalanishni talab qiladi. Buning natijasida mahalliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratiladi va turistik infratuzilma rivojlanadi. Masalan, yirik shaharlardan Dubay, Singapur va Nyu-Yorkda biznes turizmining rivojlanishi mehmonxona tarmoqlarining o'sishiga va yangi biznes imkoniyatlarining yaratilishiga xizmat qilgan². Dubayda 2019-yilda biznes turizmi orqali 5,5 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olingan bo'lib, bu mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratgan. Singapurda o'tkazilgan tadqiqotlar esa har bir biznes tashrifi mehmonxona va transport sohasiga o'rtacha 1,2 million AQSh dollari daromad keltirayotganini ko'rsatmoqda³.

Biznes sayohatlari ko'pincha samolyot, poyezd, avtobus va boshqa transport vositalari orqali amalga oshiriladi. Har bir safar transport tarmoqlariga yangi yo'lovchilarni jalb etib, ularning daromad manbaini kengaytiradi. Ayniqsa, avia- va temiryo'l transporti uchun bu juda muhim. Kompaniyalar xizmat safarlarini tashkil etishda ko'plab transport xizmatlaridan foydalanib, transport sanoatining samaradorligiga hissa qo'shadi. Masalan, 2019-yilda Dubayda biznes turizmi xalqaro aviakompaniyalarga qo'shimcha daromadlar keltirgan. Yevropa va Osiyo o'rtasida o'tkazilgan biznes konferensiyalar tufayli reyslar sonining ortishi natijasida aviakompaniyalar o'z xizmatlarini kengaytirishga majbur bo'lgan⁴.

Ikkinchidan, biznes turizmi raqobatbardoshlikni oshiradi. Kompaniyalar o'rtasida yangi hamkorlik imkoniyatlari paydo bo'ladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tashkilotlar o'z strategik rejalarini amalga oshirishda, yangi bozorlarni o'rganishda va innovatsiyalarni joriy etishda biznes safarlaridan faol foydalanadilar.

Biznes turizmi ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Sayohatlar davomida turli madaniyatlar, urf-odatlar bilan tanishish xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni oshiradi. Bu ayniqsa, ko'p millatli korporatsiyalar va xalqaro tarmoqlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun muhimdir. Xalqaro konferensiyalar va biznes seminarlar ishtirokchilarga tajriba almashish, yangi g'oyalar va innovatsiyalar yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, biznes turizmi turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Odamlar bir maqsad yo'lida birlashgani tufayli jamoaviy ishchanlik va kooperatsiya rivojlanadi, bu esa umumiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning biznes turizmiga ta'siri sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida, video-konferensiyalar, onlayn uchrashuvlar va masofadan ishlash imkoniyatlari biznes safarlarining an'anaviy shaklini o'zgartirdi. Masofaviy ishlash, virtual yig'ilishlar o'tkazish va onlayn muloqot texnologiyalari biznes uchun qulay, tejamkor va samarali vositalarga aylandi.

Masalan, Zoom va Microsoft Teams kabi platformalar yordamida kompaniyalar xodimlarini masofadan ishlashga o'tkazdi, bu esa xizmat safarlari sonining kamayishi va xarajatlarning qisqarishiga olib keldi. Biroq, strategik qarorlar qabul qilish va uzoq muddatli hamkorliklarni o'rnatishda yuzma-yuz muloqotning ahamiyati hanuz yuqori bo'lib qolmoqda.

Biznes turizmining samarali rivoji uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Texnologiyalardan keng foydalanish: Kompaniyalar videokonferensiyalar va onlayn uchrashuvlar orqali vaqt va xarajatni tejash imkoniyatiga ega. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida masofaviy ish uslublarini qo'llab-quvvatlash, xizmat safarlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

- Barqaror turizmga e'tibor qaratish: Biznes turizmi ekologik jihatdan barqaror bo'lishi zarur. Yashil mehmonxonalar, energiya tejamkor transport vositalari va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish orqali atrof-muhitga ta'sir kamaytiriladi.

² Dubai Department of Tourism and Commerce Marketing, 2020

³ Singapore Tourism Board, 2021

⁴ UNWTO. (2022). Tourism Trends and Statistics: Business Travel in Emerging Markets.



– Mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash: Biznes turizmi orqali mahalliy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi ta'minlanadi. Mahalliy mehmonxona va transport kompaniyalarining faoliyatini rag'batlantirish ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasida ham biznes turizmni rivojlantirish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra: 2025-yil 1-yanvardan boshlab, kamida 100 nafar xorijiy ishtirokchisi bo'lgan va kamida uch kun davom etadigan biznes tadbirlarni O'zbekiston hududida tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari, 2028-yil 1-yanvargacha ushbu tadbirlardan olingan daromad bo'yicha foyda solig'ini 50 foizga kamaytirilgan stavkada to'laydi⁵.

Umuman olganda, statistik ma'lumotlarga ko'ra, bir turist boshqa davlatga qilgan sayohati davomida o'rtacha 305 AQSh dollari miqdorida mablag' sarflaydi. Bu esa sayyoh tashrif buyurgan davlat budjeti uchun daromad manbai bo'lib xizmat qiladi, xususan, chiqish ruxsatnomalari va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishda ham qo'shimcha foyda keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biznes turizmi bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan. Mazkur soha turizm hamda korporativ sektorni birlashtirib, kompaniyalar va tashkilotlar o'rtasida yangi hamkorliklar va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Turizmning ushbu yo'nalishi global miqyosda yirik iqtisodiy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy infratuzilmani yaxshilash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa video-konferensiyalar va masofaviy ishlashning keng tarqalishi, biznes turizmining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, global biznes tarmog'ining integratsiyasi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda yuzma-yuz muloqotlarning ahamiyati hanuz saqlanib qolayotgani ayon bo'lmoqda.

Ijtimoiy jihatdan, biznes turizmi xalqaro aloqalarni mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotga katta hissa qo'shadi. Kompaniyalar o'rtasida amaliy tajriba almashish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari yaratiladi, bu esa o'zgaruvchan global sharoitlarda yanada samarali faoliyat yuritishga yordam beradi.

Biznes turizmiga oid amaliy tavsiyalar ekologik barqarorlikni e'tiborga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Bu yo'nalishda texnologiyalardan kengroq foydalanish hamda mahalliy iqtisodiyotga ustuvorlik berish orqali biznes turizmining ijobiy ta'sirini kuchaytirish mumkin.

Shuningdek, kelajakda biznes turizmi sohasining rivojlanishi global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali o'zining muhim rolini davom ettiradi. Mazkur soha, shubhasiz, yangi imkoniyatlar va yo'nalishlarni ochib berishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gartner, Inc. (2022). The Future of Business Travel: Trends and Insights. Retrieved from <https://www.gartner.com>.
2. World Economic Forum. (2021). The Role of Conferences in the Global Economy. Retrieved from <https://www.weforum.org>.
3. Dubai Department of Tourism and Commerce Marketing. (2020). Dubai Tourism Impact Report. Dubai Tourism Authority.
4. Singapore Tourism Board. (2021). Business Travel in Singapore: Economic Contributions and Opportunities. Singapore Tourism Board.
5. UNWTO. (2022). Tourism Trends and Statistics: Business Travel in Emerging Markets. United Nations World Tourism Organization.
6. OECD. (2020). Globalization and Cultural Exchange: The Role of Business Tourism. Organisation for Economic Co-operation and Development.
7. McKinsey & Company. (2021). The Rise of Virtual Meetings and Remote Work: Analyzing the Shift. McKinsey Insights.
8. Бектурдиев, Ж. К. Turizmni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni // Ж. К. Бектурдиев. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 12 (116). – С. Т.4. 40-42. – URL: <https://moluch.ru/archive/116/32164/> (дата обращения: 31.03.2025).
9. Harvard Business Review. (2020). Virtual Work: The Future of Corporate Travel and Remote Collaboration. Harvard Business Publishing.
10. Accenture. (2022). Digital Transformation in Business Travel: Leveraging Technology for Efficiency. Accenture.
11. UNWTO. (2021). Sustainable Tourism in the 21st Century: Challenges and Opportunities. United Nations World Tourism Organization.
12. World Travel & Tourism Council. (2022). The Economic Impact of Business Travel on Local Economies. WTTC.
13. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7031233?ONDATE=23.07.2024>

⁵ <https://www.lex.uz/uz/docs/-7031233?ONDATE=23.07.2024>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>